



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

### EGEY DENGIZI: GRETSIYA VA TURKIYA ÓRTASIDA HAL ETILMAGAN MOJARO

Akbaraliyeva Mushtariy Begim

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 3- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiya hamda Gretsiya órtasida uzoq yillik siyosiy - huquqiy mojaroga sabab bólib kelayotgan Egey dengizi hududi tahlil qilinadi. Maqolada asosan ushbu nizoning tarixiy ildizlari, strategik va xavfsizlikka doir jihatlari va huquqiy asoslari yoritib beriladi. Mavzuni kengroq yoritib berish maqsadida IMRAD (Introduction, methods, results, discussion) tadqiqot modelidan, bundan tashqari xalqaro huquq normalari, shartnomalar va ilmiy maqolalardan dalil sifatida foydalanildi. Ushbu nizo faqat ikki tomon órtasidagi mavhum masala emas, balki xalqaro tizim barqarorligiga va mintaqaviy xavfsizlik masalasiga ta'sir etuvchi muhim geosiyosiy muammo hisoblanadi.

**Kalit sózlar:** Gretsiya, Turkiya, Egey dengizi, xalqaro tashkilotlar nomi, qit'a shelfi, huquq normalari, NATO, BMT.

#### KIRISH: ( INTRODUCTION)

Egey dengizi mojarosi uzoq ótmishdan beri tóliq hal etilmagan, kóplab nizo va tushunmovchiliklarga sabab bólayotgan hudud hisoblanadi. Bu mojaró bugungi xalqaro munosabatlar tizimida ham uzoq davom etayotgan va murakkab nizolardan biridir. Garchi bu mojaró ochiq urush darajasiga yetmagan bólsa ham, doimiy harbiy - siyosiy qarama - qarshiliklar va hududiy muammolarga sabab bo'lmoqda. Ushbu mojaró ildizlari bevosita XIX - asrlar boshrog'iga borib taqaladi. 1821 - yilda Gretsiya Usmonlilardan mustaqillikka erishgach, Artadan to Volosgacha bólgan hududlar uning tarkibiga kirgan.<sup>1</sup> Kipr, Krit va Egey dengizining boshqa qismlari esa Turkiya qólide qolgan. Rasmiy ravishda Turkiya 1832 - yildagina Gretsiya tarkibida bólgan hududlarni tan olgan.

Nega bu hudud mojarolarga sabab bo'lmoqda?

1. Territorial suvlar: Egey dengizi geografik jihatdan kóplab orollarga ega hamda strategik savdo yóllari chorrahasida joylashgan. U tarixan Yevropa va Osiyoni bog'lovchi kópriq vazifasini bajargan. Egey dengizidagi kóplab orollar xususan Lesbos, Xios, Samos va Rodos kabilar Gretsiya nazoratida. Biroq ular Turkiya hududiga juda yaqin joylashgan. Agar Gretsiya xalqaro qonunga muvofiq territorial suv sathini 6 mildan 12 milga kengaytirsá, Egeyning 71% dan ortiq qismi Gretsiyaga ótib ketadi.<sup>2</sup> Bu holat Turkiya uchun "Egey yunonlar kóli"ga aylanishi bilan teng. Buning natijasida Turkiya ochiq dengizga chiqish huquqini yóqotadi, Gretsiya ruxsatisiz savdo va harbiy kemalari óta olmaydi. Turkiya pozitsiyasi bóyicha Egey adolatli va teng taqsimlansin deb hisoblaydi.<sup>3</sup> Unga kóra Gretsiya faqat 6 mil suvga egalik qilsin, qolgani esa meridian chiziq bóyicha taqsimlansin. Chunki Turkiya Egey

<sup>1</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Greek\\_War\\_of\\_Independence](https://en.wikipedia.org/wiki/Greek_War_of_Independence)

<sup>2</sup> <https://www.mfa.gr/en/foreign-policy/foreign-policy-issues/issues-of-greek-turkish-relations/territorial-sea-casus-belli/?referrer=grok.com>

<sup>3</sup> <https://www.mfa.gov.tr/lausanne-peace-treaty.en.mfa?referrer=grok.com>



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

dengizining óziga xos geografik holatini hisobga olib, 6 mildan ortiq kengayishni óz milliy xavfsizligiga nisbatan tahdid deb hisoblaydi. Lekin Gretsiya pozitsiyasi aksincha - orollar materik bilan bir xil huquqli, UNCLOS bóyicha eksklyuziv iqtisodiy zona va tóliq shelfga ega.

2. Orollar: Egey dengizining huquqiy asosi 1923- yilgi Lozanna tinchlik shartnomasiga borib taqaladi.<sup>4</sup> Bu shartnomaga muvofiq Egey dengizidagi kóplab orollar Gretsiya suverenitetiga ótkazilgan. 1947- yilda Parij shartnomasi imzolanishi bilan Dodekanes orollari ham Gretsiya tarkibiga berilgan. Turkiya garchi bu shartnomalarni tan olsa ham ayrim kichik orollar va qoyalar (Imia va Kardak ) aniq belgilanmaganini rókach qilib keladi. Turkiya bu hududlarni tóliq kontinental shelf zona va eksklyuziv iqtisodiy zonaga ega bólmashligi kerak deb hisoblaydi. Unga kóra bu hududlar, Turkiya materigi Anatoliyaning davomiyligi bólishi kerak.

Ikki davlat o'rtasidagi asosiy kelishmovchiliklar nimalardan iborat?

1. Turkiya hukumati 1973 - yilning noyabr oyida Turkish Petroleum Companyga Egey dengizining sharqiy qismi Limnos, Lesbos va Xios singari orollari yaqinida neft izlash uchun litsenziya berdi va maxsus xarita chiqardi.<sup>5</sup> Bu xarita Gretsiya orollari umuman e'tiborga olinmagan. Chunki Turkiya bu hududlarni Anatoliyaning bir qismi deb bilardi. Gretsiya esa bu da'volarga qarshi 1958 - yilgi shelf konvensiyasi bóyicha orollar óz shelfiga ega, meridian chizig'i bóyicha bólinishi kerak degan da'voni qóydi. Shundan sóng u 1976 -yilda BMT Xavfsizlik Kengashi va Xalqaro Sudga murojaat qildi, AQSh va NATO aralashuvi bilan keskinlik pasaydi. Shu yilning 11 - noyabr kuni Shveysariyada kelishuv imzolandi. Unga muvofiq ikki tomon ham tadqiqotlarni tóxtatishi, provokatsiyalardan qochish va muzokaralar ótkazishga kelishildi. Bu " modus vivendi" edi.<sup>6</sup> Harbiy tóqnashuvning oldi olindi, biroq chegara delimitatsiyasi hal etilmadi.

2. 1974 - yilda bólib ótgan Kipr inqirozi bu orolni ikkiga bólib yuborilishiga olib keldi. 1960 - yilda Kipr Buyuk Britaniyadan ozoq bólib chiqqanida unda 80% yunon kiprlari va 18% turklar bor edi.<sup>7</sup> Yunonlar enosisni turklar esa taksim bólishni xoxlardi. Gretsiyadagi harbiy xunda davlat tóntarishi uyushtirdi va natijada Makarios III taxtdan tushirilib órniga enosis tarafdori Nikos Sampson ótirdi.<sup>8</sup> Turkiya bu tóntarishga 1960 yilda qabul qilingan konvensiyani bahona qilib, kiprdagi turtlari himoya qilishini aytdi. Turkiya " Attila" operatsiyasini boshladi.<sup>9</sup> Bunda turklar orolning 3-7 % qismini egalladi. Yakunda muzokaralar besamarasiz ketdi, Famagusta va orolning 37% turklar nazoratiga ótdi.

Harbiy va xavfsizlik ólchovi:

3. Imia va Kardak inqirozi eng keskin mojaro hisoblanadi. 1996- yildagi bu tóqnashuvga aholisi bólmagan, kichik qoya sabab bóldi.<sup>10</sup> Turk kemasi Imiaga yaqin joyda turib qoladi, kapitan esa yordamni óz sohilida nazoratga olishlarini sóraydi. Ammo Grek kapitani bu hudud territorial suvlar ekanini da'vo qiladi. Oddiy kóringan voqea vaqt ótishi bilan jiddiy tusga

<sup>4</sup> [https://www.lib.byu.edu/index.php/Treaty\\_of\\_Lausanne?referrer=grok.com](https://www.lib.byu.edu/index.php/Treaty_of_Lausanne?referrer=grok.com)

<sup>5</sup> <https://www.icj-cij.org/node/103410?referrer=grok.com>

<sup>6</sup> [https://www.researchgate.net/publication/279060188\\_Aegean\\_Maritime\\_Boundaries\\_Issues\\_and\\_Solutions?referrer=grok.com](https://www.researchgate.net/publication/279060188_Aegean_Maritime_Boundaries_Issues_and_Solutions?referrer=grok.com)

<sup>7</sup> <https://assembly.coe.int/nw/xml/XRef/X2H-Xref-ViewHTML.asp?FileID=6916&referrer=grok.com>

<sup>8</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/1974\\_Cypriot\\_coup\\_d%27%27C3%A9tat?referrer=grok.com](https://en.wikipedia.org/wiki/1974_Cypriot_coup_d%27%27C3%A9tat?referrer=grok.com)

<sup>9</sup> [https://tr.wikipedia.org/wiki/K%C4%B1br%C4%B1s\\_Harek%C3%A2t%C4%B1?referrer=grok.com](https://tr.wikipedia.org/wiki/K%C4%B1br%C4%B1s_Harek%C3%A2t%C4%B1?referrer=grok.com)

<sup>10</sup> <https://www.mfa.gr/en/foreign-policy/issues/imia/?referrer=grok.com>



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

kiradi. 1995 - yilda Turkiya Tashqi ishlar vazirligi Gretsiyaga nota yuborib, Imia oralini Turkiyaga tegishli ekanini da'vo qiladi.<sup>11</sup> Gretsiya bu hudud 1947 - yilda Italiyadan Gretsiyaga o'tgan Dodekanes orollariga kirishini, Turkiya esa shartnomada Imia kórsatilmagani va u "kulrang zona" ekanligini ta'kidlaydi.

4. 2000 - yillardan to 2020 - yillargacha yuzlab va takroriy havo tóqnashuvlari sodir bólib turdi. Turk qóshinlari Yunon havo hududiga kirgan. Bu "maxfiy havo urushi" deb atalgan. 2020- 2025 - yillarda boshqa kemaliy tóqnashuvlar bólib ótdi. Oruç Reis tadqiqot bahonasida turk floti Yunon suvlariga kirganda, Yunon fregati turk fregatini urib, zarar berdi.<sup>12</sup> Bu Turkiya uchun qattiq zarba bóldi. Fransiya va boshqa davlatlar Gretsiyani qóllab, flot yubordi.

Mojarolarning hozirgi holati

Bugungi 2025- yilda continental shelf, EEZ, territorial suvlar, "kulrang zonalar" , orollar militarizatsiyasi bo'yicha ziddiyatlar davom etmoqda.<sup>13</sup> Yuqori darajadagi uchrashuvlar rejalashtirilgan, savdo va turizm rivojlanmoqda, biroq dengiz parklarini e'lon qilish, raketa joylashtirish va chegara bahslari tufayli keskinlik bor.

Metodlar: (methods)

Mavzuni yoritish uchun 1923- yilda imzolangan Lozanna shartnomasi, 1947- yildagi Parij shartnomasi, Efstathios (Efthymios) Papastavridis (ELIAMEP siyosiy markazi tadqiqotchisi): "The Greek-Turkish Maritime Disputes: An International Law Perspective",<sup>14</sup> Maria Gavouneli (Afina milliy va Kapodistriya universiteti professori): Uning "Whose Sea? A Greek International Law Perspective on the Greek-Turkish Disputes",<sup>15</sup> Jon M. Van Dyke (AQSh, Gavayi universiteti professori): "An Analysis of the Aegean Disputes under International Law"<sup>16</sup> maqolasini metod sifatida qo'lladim.

Lozanna shartnomasi: Bu shartnoma Gretsiya va Turkiya órtasida Egey dengizi masalasi bóyicha status-kvoni órnatgan asosiy hujjat hisoblanadi. U Egey dengizidagi orollar suverenitetini, demilitarizatsiyani va chegaralarni belgilaydi. Eng muhim moddalar orqali bu imkoniyatlarni ham huquqiy mustahkamlagan.

12 - moddaga kóra Gretsiyaning Sharqiy Órta dengiz orollari ustidan suverenitetini tasdiqlaydi, lekin Tenedos, Imbros orollari Turkiyaga qoldirilgan. Osiyo qirg'og'idan 3 mil masofadagi orollar Turkiya suverenitetida qoladi.<sup>17</sup>

13 - moddaga binoan Gretsiyaning Egey orollaridagi harbiy faoliyatini cheklaydi. Bu orollarda dengiz bazalari va qal'alar qurish man etiladi, harbiy samolyotlar Turkiya hududi ustidan uchishi taqiqlanadi. Orollaridagi xavfsizlik oddiy chaqiruv kontigeni va mahalliy politsiya bilan cheklanadi.

<sup>11</sup> <https://www.cfr.org/background/greece-turkey-tensions-explained?referrer=grok.com>

<sup>12</sup> <https://www.bbc.com/news/world-europe-54504123>

<sup>13</sup> <https://www.meforum.org/mef-observer/greeces-maritime-eastern-mediterranean-push-will-force-washington-to-choose-sides#:~:text=and%20revived%20the%20E2%80%9C-,grey%20zones%20E2%80%9D,-theory%2C%20asserting%20that>

<sup>14</sup> <https://www.eliamep.gr/wp-content/uploads/2020/07/Policy-paper-36-Papastavridis-final-10.07.pdf?referrer=grok.com>

<sup>15</sup> <https://www.institutmontaigne.org/en/expressions/whose-sea-greek-international-law-perspective-greek-turkish-disputes?referrer=grok.com>

<sup>16</sup> <https://doi.org/10.1080/00908320590909088>

<sup>17</sup> [https://www.lib.byu.edu/index.php/Treaty\\_of\\_Lausanne?referrer=grok.com](https://www.lib.byu.edu/index.php/Treaty_of_Lausanne?referrer=grok.com)



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

14 - modda Imbros va Tenedos orollari Turkiya suverenitetida qoladi, biroq mahalliy boshqaruv va musulmon bólmagan aholining huquqlarini himoya qilish bilan maxsus tuzim órnatiladi. Aholining almashish shartnomalari bu orollarga taalluqli emas.

15 - modda Turkiya Rodos, Kos, Leros orollaridan vos kechadi, ularni Italiyaga ótkazadi.<sup>18</sup>

16 - modda Turkiya shartnomada belgilangan chegaralardan tashqaridagi barcha hududlardan vos kechadi, ularning masalasi tegishli tomonlar tomonidan hal qilinadi.

Bu kabi moddalar Turkiyaga Egey dengizining sharqiy qismida cheklangan hududlarni, Gretsiyaga esa ko'pchilik orollarni beradi, lekin Gretsiya harbiy cheklolarga amal qilishga majbur.

Parij shartnomasi: Bu shartnoma Ikkinchi jahon urushidan keyin tuzilgan va Lozanna shartnomasini ayrim joylarini tóldiradi. U Egey dengizining janubiy orollarini Italiyadan Gretsiyaga ótkazib berishni ta'minlaydi va demilitarizatsiyani tasdiqlaydi.

14 - modda Italiya Dodekanes orollarini xususan Rodos, Kos, Leros, Patmosni Gretsiyaga ótkazdi.<sup>19</sup> Moddaning 2- bólimida bu orollarning demilitarizatsiyani qilinishi va shu holatda qolishi bayon etilgan. Bu orollarda harbiy baza va qurollanish taqiqlanadi.

"The Greek-Turkish Maritime Disputes: An International Law Perspective" maqolasi - bu maqolada yozuvchi umumiy Gretsiya va Turkiya dengiz nizolariga tarif beradi: xalqaro huquq nuqtai nazaridan turli yondashuvlar Gretsiya va Turkiya órtasidagi Egey dengizi bilan bog'liq nizolar zamonaviy xalqaro munosabatlardagi eng murakkab va uzoq davom etayotgan konfliktlardan biri hisoblanadi.<sup>20</sup> Ushbu maqolada bu nizoni turli huquqiy rakursda yoritib, xalqaro huquqning imkoniyatlari va cheklovlarini ochib beradi. Maritime Disputes maqolasi Egey dengizi mojarosiga nisbatan neytral va akademik yondashuvni taklif qiladi. Muallif asosiy e'tiborni BMTning Dengiz huquqi tóg'risidagi normalariga qaratadi.<sup>21</sup> Nizoni siyosiy da'volardan kóra huquqiy masala sifatida kórib chiqadi. Maqolada hududiy suvlar, shelf zonalar bir tomonlama harakat orqali emas, balki huquqiy mexanizmlar orqali hal qilinishi lozimligi ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda muallif Gretsiyaning huquqiy pozitsiyasi xalqaro huquqqa mos kelishini tan olgan holda, Egey dengizining geografiyasi umumiy qoidalarni tóliq va mexanik tarzda qóllashga imkon bermasligini qayd etadi. Xalqaro huquq bu yerda mutlaq ustunlik emas, balki muvozanatni ta'minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi.

"Whose Sea? A Greek International Law Perspective on the Greek Turkish Disputes" maqolasida esa aniq Gretsiya manfaatlariga mos yondashuvni ilgari suradi. Unda xalqaro huquq qoidalari Gretsiya foydasiga qat'iy talqin qilinadi. Muallifning fikricha, Gretsiya orollari tóliq dengiz hududlari va iqtisodiy zonalar hosil qilish huquqiga ega bólib, Turkiyaning "maxsus geografik holat" haqidagi da'volari huquqiy emas, balki siyosiy xarakterga ega.<sup>22</sup> UNCLOSga Turkiyaning a'zo emasligi esa uning talablarini yanada zaiflashtiruvchi omil qilib kórsatiladi. Ushbu maqolada nizo murosa yoki kelishuv masalasi

<sup>18</sup> [https://wwi.lib.byu.edu/index.php/Treaty\\_of\\_Lausanne?referrer=grok.com](https://wwi.lib.byu.edu/index.php/Treaty_of_Lausanne?referrer=grok.com)

<sup>19</sup> [https://www.cvce.eu/en/obj/treaty\\_of\\_peace\\_with\\_italy\\_paris\\_10\\_february\\_1947-en-4c4f9b4a-5d6c-4e6d-9b7e-5e6d7f0e6e6e.html?referrer=grok.com](https://www.cvce.eu/en/obj/treaty_of_peace_with_italy_paris_10_february_1947-en-4c4f9b4a-5d6c-4e6d-9b7e-5e6d7f0e6e6e.html?referrer=grok.com)

<sup>20</sup> <https://www.eliamep.gr/wp-content/uploads/2020/07/Policy-paper-36-Papastavridis-final-10.07.pdf?referrer=grok.com>

<sup>21</sup> <https://doi.org/10.1080/00908320590909088>

<sup>22</sup> [https://www.athenspil.law.uoa.gr/fileadmin/depts/law.uoa.gr/athenspil/uploads/Gavouneli\\_CV\\_2022.pdf?referrer=grok.com](https://www.athenspil.law.uoa.gr/fileadmin/depts/law.uoa.gr/athenspil/uploads/Gavouneli_CV_2022.pdf?referrer=grok.com)



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

sifatida emas, balki Gretsiyaning xalqaro huquq normalariga rioya qilinishi talab qilinayotgan holat sifatida talqin qilinadi. Shu bois, bu yondashuv huquqiy jihatdan qat'iy bólsa ham amaliy yechim imkoniyatlarini cheklaydi.

Jon M. Van Dykening "An Analysis of the Aegean Disputes under International Law" maqolasi esa nisbatan muvozanatli va realistik yondashuvi bilan ajralib turadi. Muallif óz tahlilida Xalqaro sud va arbitraj amaliyotiga keng murojaat qilib, orollarning dengiz hududlari masalasida mutlaq doidalar mavjud emasligini kórsatadi. Xalqaro huquqda "adolat" va "nisbatlilik" tamoyillari muhim órin tutishini ta'kidlab, Egey dengizida faqat Gretsiya manfaatlarini maksimal darajada ta'minlash mumkin emasligini asoslaydi. Uning fikricha, agar nizo xalqaro sud miqyosida kórib chiqilsa, Gretsiya huquqiy ustunlikka ega bólishi mumkin, biroq yakuniy dilimitatsiya Turkiya foydasiga ham muayyan muvozanatni ta'minlaydi. Shu tariqa, Van Dyke xalqaro huquqni qat'iy qoidalar majmui emas real siyosiy va geografik sharoitlarga moslashuvchi tizim sifatida talqin qiladi. Umuman olganda, ushbu uchta maqola Gretsiya - Turkiya dengiz nizolari yuzasidan xalqaro huquq doirasida yagona va aniq javob mavjud emasligini kórsatadi.

Natijalar: (results)

Umumiy órganilgan maqolalar, statistik ma'lumotlar, faktlarga tayangan holda tahlil natijalari shuni kórsatadiki, Gretsiya va Turkiya órtasidagi Egey dengizi mojarosi xalqaro dengiz huquqi normalarini qóllashda umumiy qoidalardan kelib chiqilgan bólsa, ularning talqini va amaliy natijalari sezilarli darajada farqlanadi.<sup>23</sup> Órganilgan manbalar Gretsiya pozitsiyasi BMTning Dengiz huquqi tóg'risidagi konvensiyasi normalariga kóproq mos kelishi aniqlangan.

Xususan, Gretsiya orollarning kontinental shelf va eksklyuziv iqtisodiy zona hosil qilish huquqini tóliq tan olgan holda, óz da'volarini xalqaro huquqiy asoslari bilan mustahkamlaydi.

Biroq natijalar shuni kórsatadiki xalqaro sud va arbitraj amaliyotlari dengiz hududlarini belgilashda har doim ham maksimal huquqiy ta'sir berilmasligini tasdiqlaydi. Jon M. Van Dyke tomonidan tahlil qilingan sud amaliyotlariga kóra, Egey dengizida faqat Gretsiya manfaatlariga asoslangan demilitarizatsiya ehtimoli pastligi aniqlandi.

Shuningdek natijalar Turkiyaning UNCLOSga a'zo emasligi uning huquqiy pozitsiyasini tóliq inkor etmasligini kórsatadi.

Shu bilan birga, Turkiyaning Egey dengizida Gretsiyaning 12 dengiz mil hududiy suvlar belgilash huquqini casus belli<sup>24</sup> sifatida talqin qilishi xalqaro huquq doirasida zaif ekanligi asoslangan. Umumiy natijalar shuni kórsatadiki, agar Egey dengizi mojarosi xalqaro sud muzokarasiga olib chiqilsa, Gretsiya huquqiy jihatdan ustun mavqeiga ega bólish ehtimoli yuqori.

Biroq yakuniy delimitatsiya Gretsiyaning maksimal da'volarini tóliq qondirmaydi hamda Turkiya foydasiga muayyan muvozanatli chegara chizilishi ehtimoli bor. Shuning uchun xalqaro huquq mojaroni hal etishda muhim normativ asos bólib xizmat qilsa, yakuniy va

<sup>23</sup> <https://www.icj-cij.org/public/files/case-related/17/017-19470210-JUD-01-00-EN.pdf?referrer=grok.com>

<sup>24</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Aegean\\_dispute?referrer=grok.com#Territorial\\_waters\\_and\\_casus\\_belli](https://en.wikipedia.org/wiki/Aegean_dispute?referrer=grok.com#Territorial_waters_and_casus_belli)



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

barqaror yechimni faqat diplomatik muzokaralar bilan uyg'unlashgan holda ta'minlash mumkinligi isbotlandi.

Muhokama: (discussion)

Muhokama markaziga asosan orollarning dengiz hududlarini shakllantirish masalasini qo'yish mumkin. Nazariy jihatdan orollar EEZ b'olish huquqiga ega.

Ammo xalqaro sud amaliyotida bu huquq har doim ham t'oliq q'ollanilmaydi. Ikkinchidan Turkiyaning UNCLOSga a'zo emasligi bahsli, biroq hal qiluvchi omil emas.

Bir tomondan bu Gretsiya tomonining huquqiy ustunligini kuchaytiradi. Boshqa tarafdin esa, xalqaro sud Turkiyaga muayyan darajada huquqiy imkon beradi.

Xulosa: xulosa qilib aytsak, bugungi kunda bu mavzu nisbatan turg'un holatda turibdi. Kuchli harbiy to'qnashuvlar tarixda qolib ketgan bo'lsa ham hamon nizolar mavjud.

Menimcha Egey dengizi meridian chizig'i bo'yicha chegaraviy taqsimlansa ancha maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Lekin Egey dengizi xalqaro UNCLOS Mulki hisoblanadi. Shu bois dengiz qatnovida uncha to'qislar mavjud emas.

Agar chegaraviy taqsimot amalga oshirilsa Turkiyaning erkin dengizga chiqish huquqi cheklanadi. Hozirda har ikki tomon ham o'z pozitsiyasini himoya qilmoqda, mintaqaviy tinchlik uchun diplomatik yechim eng maqbul yo'ldir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Van Dyke, J.M. (1997) An analysis of the Aegean disputes under international law. *Ocean Development & International Law*, 28(1), pp.63–117.
2. Van Dyke, J.M., Morgan, J. and Gurish, J. (2003) The exclusive economic zone of Turkey. *Ocean Development & International Law*, 34(2), pp.111–158.
3. Kariotis, T.C. (2007) Greek-Turkish relations and the Aegean dispute. *Mediterranean Quarterly*, 18(4), pp.1–20.
4. United Nations (1982) *United Nations Convention on the Law of the Sea*. Montego Bay: United Nations.
5. International Court of Justice (1985) *Continental Shelf (Libyan Arab Jamahiriya v Malta)*. Judgment, ICJ Reports 1985, pp.13–104  
Xalqaro shartnomalar (asosiy hujjatlar)
6. [https://wwi.lib.byu.edu/index.php/Treaty\\_of\\_Lausanne](https://wwi.lib.byu.edu/index.php/Treaty_of_Lausanne)
7. <https://gis.nacse.org/tfdd/tfdddocs/135ENG.pdf>  
Silkalar:
8. <https://www.institutmontaigne.org/en/expressions/whose-sea-greek-international-law-perspective-greek-turkish-disputes>
9. <https://www.eliamep.gr/wp-content/uploads/2020/07/Policy-paper-36-Papastavridis-final-10.07.pdf>



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "**

---

10. <https://www.institutmontaigne.org/en/expressions/whose-sea-turkish-international-law-perspective-greek-turkish-disputes>

11. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/00908320590909088>

12. <https://www.eliamer.gr/wp-content/uploads/2020/07/Policy-paper-36-Papastavridis-final-10.07.pdf>